Umumta'lim maktablarining 9-sinf fizika darslarida tovush hodisasini anglashni tajriba orqali rivojlantirish	684
Sobirov Avazbek Anvarovich	
Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari va rivojlanish bosqichlari	689
Tajiboyeva Odinoxon Rustamjon qizi	
Portret janrini o'qitishda individual ta'lim va fanlararo integratsiyaning nazariy-metodologik asoslari	693
Xudaynazarova Ug'ilo'y Sharifovna	
Aqli zaif bolalarda sensomotor rivojlanishning psixologik-pedagogik xususiyatlari	696
Xudoyberdiyeva Ra'no Arabboyevna	
Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash metodikasi (tarbiya fani misolida)	700
Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna	
Chizmachilik fanining turmush tarzimidagi ahamiyati va o'rni	704
Achilov Nurbek Norboy o'g'li	
O'quvchilarni musiqa san'atiga qiziqtirishda musiqa psixologiyasining roli	707
E'zoxon Qobilova	
Bolalar adabiyotini o'qitishda milliy qadriyatlarni singdirish va kreativ kompetensiyani rivojlantirishning innovatsion yo'llari	710
G'aniyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Madinaxon Madaminjon qizi	
Boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlarni til kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida tahlil qilish	713
G'anijonova Sarvinov, Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna	
O'quvchilarda global o'qish savodxonligini shakllantirishda milliy matnlar va qadriyatlar asosidagi pirls tipidagi topshiriqlar yaratish tajribasi	717
Ikromova Gulhida Axmadillo qizi, G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi	



Bo'lajak pedagoglarni intellektual rivojlantirishda pedagogik artistizmdan foydalanish texnologiyalari pedagogik muammo sifatida	720
Karribayeva Lobarxon Fayzulla qizi	
Ilmiy matnni o'qib tushunish va baholashda nostandart testlardan foydalanish bosqichlari.....	724
Komilova Lola Nasilloevna	
Dizatriyada tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o'yin orqali rivojlantirish texnologiyalari.....	728
Mamatova Muzayyana Batirovna	
Turkiy bitiklarda nomlar tizimi va ularning semantik xususiyatlari	732
Munisa Shavkatova	
Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	736
Muqimova Dilbarxon Xusanboyevna	
Sportda liderlik va jamoaviy ruhni shakllantirish metodlari	740
Nazarov Nursultan Safarbayevich	
Dars mashg'ulotlarini tashkil etishda loyihalashtirishning o'rni va ahamiyati.....	744
Normurodov Sharofiddin Muxiddinovich	
Ta'limda innovatsion kompetentlikning ahamiyati.....	748
Qobilova Aziza Tursunovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali bolalarda tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish	752
Salimova Aziza Sharipovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'limning imkoniyatlari va muammolari	755
Sidiqova Ma'mura Adhamjonovna	
Til kompetentligini rivojlantirishda vizual materiallardan foydalanishning o'rni (boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish texnologiyasi misolida)	758
Zakirova Sohila Muhtoraliyevna, Sobirova Diloromxon Ma'rufjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi koxlear implantli bolalarni eshituv - nutqiy reabilitatsiyasi	761
Xamraeva Dildora Baxadirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda duduqlanishni kelib chiqish sababalari va korreksion ishlar	766
Xolboeva Ruxsora Egamberdiyevna	
Эффективность арт-терапии в обогащении словарного запаса у детей с ЗПР	770
Наган Олеся Талгатовна	
Autizmlı bolalar nutqini rivojlantirishda o'yinning ahamiyati.....	775
Nishonova Sevara	
Boshlang'ich sinflarda disgrafiyasi bo'lgan o'quvchılarda yozish kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari (XIX–XXI asrda).....	778
Qaxxorova Saidaxon, Mamarajabova Zulfiya	
Autizmlı bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish texnologiyalari.....	781
Raxmonova Manzura Maxmudovna	
Talabalarda ma'naviy ongning rivojlanishidagi milliy dunyoqarash va tafakkur uslubining shakllanish omillari	785
Usarova Nigora Berdiyarovna	
PIRLSda qo'llaniladigan yuqori darajadagi tushunish ko'nikmalari (interpretatsiya, sintez) va ularni muloqotga o'rgatishda qo'llash	788
Choriyeva Valida Abdug'ani qizi, Shodiyev Faxriddin Teshayevich	
Prokrastinatsiya fenomenining retrospektiv talqini	795
M. L. Aripova	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda badiiy adabiyotning o'rni.....	799
Xudoyberdiyeva Madina Abdulbaki qizi	

YUQORI SINFLAR O'QUVCHILARIDA ESTETIK MADANIYATNI TARBIYALASH METODIKASI (TARBIYA FANI MISOLIDA)

Yoqubjonova Shodiya G'ayratovna

Guliston davlat pedagogika yo'nalishi

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada estetik tarbiyaning maqsadi, vositalari va yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni shakllantirishda "Tarbiya" fanining o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Unda pedagogik olimlar fikrlari va ilmiy manbalarga asoslangan ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, "Tarbiya" darslari orqali estetik madaniyatni rivojlantirish imkoniyatlari keng yoritilgan. Maqola yakunida xulosa va tavsiyalar berilgan. Estetik tarbiya – bu insonparvar mohiyatga ega, nafasat qonunlari asosida go'zallikni idrok etish, baholash va yaratishga qodir shaxsni shakllantirishga qaratilgan tarbiya sohasidir. Uning maqsadi o'quvchilarda axloqiy-estetik, insonparvarlik ideallarini, go'zallikni ko'ra olish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Kalit so'zlar: estetika, tarbiya, nafasat, madaniyat, ta'lim, ekskursiya, badiiy asar tahlili, ruhiy tarbiya, metodika, vosita.

Abstract: This article examines the purpose and means of aesthetic education, as well as the role of the "Education" subject in fostering aesthetic culture among high school students. It presents scientific findings and opinions of pedagogical scholars. The article also explores the possibilities of developing aesthetic culture through Education lessons and concludes with practical recommendations. Aesthetic education is a field of pedagogy aimed at forming an individual capable of perceiving, evaluating, and recreating reality in accordance with the principles of humanism and aesthetics. Its purpose is to develop in students the ability to see, feel, understand, and create beauty, along with moral-aesthetic and humanistic ideals necessary for the comprehensive development of personality.

Key words: aesthetics, education, refinement, culture, teaching, excursion, analysis of a work of art, spiritual education, methodology, means.

Аннотация: В статье рассматриваются цель и средства эстетического воспитания, а также значение предмета "Воспитание" в формировании эстетической культуры у учащихся старших классов. Приводятся научные данные и мнения педагогов-исследователей. Широко раскрываются возможности развития эстетической культуры посредством уроков воспитания. В заключение статьи представлены выводы и рекомендации. Эстетическое воспитание – это область педагогики, направленная на формирование личности, способной воспринимать, оценивать и воссоздавать действительность в соответствии с законами гуманизма и эстетики. Его цель – сформировать у учащихся нравственно-эстетические и гуманистические идеалы, умение видеть, чувствовать, понимать и создавать красоту, необходимую для всестороннего развития личности.

Ключевые слова: эстетика, воспитание, утонченность, культура, образование, экскурсия, анализ художественного произведения, духовное воспитание, методика, средства.

KIRISH

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Jamiyatning istiqbolli rivojlanishi shaxsdan yanada yuksak talablarni qo'yimoqda – insonning har tomonlama kamol topishi uchun ijodiy faollik, mustaqil fikrlash va estetik idrok zarur omilga aylandi. Shu munosabat bilan estetik tarbiyaning roli ham sezilarli darajada oshdi. Ijtimoiy va amaliy fanlar, jumladan musiqa madaniyati, san'at va ta'lim sohalarining rivojlanishi estetik tarbiyani samarali yo'lga qo'yish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Bugungi kunda tarbiya tizimining barcha yo'nalishlari, xususan, musiqiy-estetik tarbiya sohasiga e'tibor tobora ortib bormoqda ^[1].

Estetik tarbiya – o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong va go'zallikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiya shaklidir. U estetik jihatdan rivojlangan, ijodiy faol va nafasat qonunlarini anglay oladigan shaxsni tarbiyalash jarayonidir ^[4]. Estetik tarbiya insonparvar mohiyatga ega bo'lib, estetik orzuga mos voqelikni idrok etish, baholash va uni go'zallik qonunlari asosida qayta yaratishga qodir inson



shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan. Estetik tarbiyaning maqsadi – o'quvchilarda shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur bo'lgan axloqiy-estetik ideallarni shakllantirish, go'zallikni ko'ra bilish, his qilish, tushunish va yaratish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning mohiyatini o'quvchilarga to'g'ri tushuntirish mazkur tarbiya jarayonining hayotiyliigi va samaradorligini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Estetika (qadimgi yunoncha *aisthesis* – “his”, “tuyg'u”) olamni hissiy qabul qilish va uning go'zallik jihatlarini tahlil etuvchi fandir. “Estetika” terminini nemis faylasufi A. Baumgarten (1714–1776) ilmiy muomalaga kiritgan. Tarixan “go'zallik falsafasi”, “san'at falsafasi” yoki “badiiy ijod falsafasi” iboralari estetikaning sinonimi sifatida ishlatilib kelgan. Estetika san'at, tabiat, texnika, dizayn, sport, turmush va atrof-muhitni go'zallashtirish kabi ko'plab yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Estetika tadqiqot obyektlari orasida san'at alohida o'rinni egallaydi, chunki u qadimdan buyon insonning hissiy va badiiy faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Estetikaning san'at-shunoslikdan farqi shundaki, u san'at hodisalariga falsafiy-nazariy yondashuvni ta'minlaydi. M. Abdullaeva o'z tadqiqotlarida estetik tarbiyaning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini tahlil qilib, badiiy asarlar orqali estetik didni shakllantirish metodlarini ishlab chiqqan ^[5].

A. Murodov o'quvchilarda estetik madaniyatni rivojlantirishda interaktiv metodlar va badiiy faoliyatning rolini yoritgan hamda estetik didni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bergan ^[6]. B. Toshpulatov estetik tarbiyaning nazariy asoslarini o'rganib, uning ta'lim jarayoniga ta'sirini aniqlagan, pedagogik usullar tizimini tahlil qilgan ^[7]. S. Xolmatova san'at va estetik tarbiyaning o'zaro aloqasini tahlil qilib, san'at asarlarini taqdim etish usullarini hamda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish metodlarini taklif etgan ^[5]. N. Jumanioyova esa O'zbekiston ta'lim tizimida estetik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va loyihalarni tahlil qilib, o'quvchilarda estetik his-tuyg'ularni rivojlantirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ko'rsatgan ^[8].

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadi – o'quvchilarda ma'naviy go'zallikni his qilishni tarbiyalash, yuksak estetik did va san'at asarlariga mehr uyg'otish, tarixiy va me'moriy yodgorliklarga hurmat bilan qarash, tabiat va jamiyat boyliklarini qadrlash, ularni asrab-avaylash ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir ^[4]. Shu orqali insoniy fazilatlar, nafosatga muhabbat va ijodiy tafakkur tarbiyalanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Estetik tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda shuni qayd etish mumkinki, uning yordamida yosh avlodni Vatanimiz va jahon badiiy madaniyatining eng yaxshi namunalaridan zavqlana oladigan, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashga erishish lozim bo'ladi. Estetik tarbiya yosh avlodning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini yuksaltirishga qaratilgan bo'ladi. Estetik tarbiyaning vazifalari uning asosiy maqsadini amalga oshirishdan iboratdir. Bunda mustaqil respublikamizdagi ta'lim-tarbiyani isloh qilish borasidagi sa'y-harakatlar ham e'tiborga olinmog'i zarur. Estetik tarbiyani samarali amalga oshirishda quyidagilar asosiy vositalar hisoblanadi: muzeylar, teatrlar, kutubxonalar, klublar, kinoteatrlar, galereyalar, o'tmish obidolari, tarixiy me'morchilik yodgorliklari, san'at asarlari, tarixiy-madaniy joylar hamda hayot tarzimizdagi mavjud go'zalliklar o'quvchilarni estetik ruhda tarbiyalashga asos bo'ladi.

Estetik tarbiya vositalari – yuqori sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdagi tanlab olingan turmush, tabiat, san'at estetikasi, yoshlarning badiiy ijodi namunalari hamda yuqorida qayd etilgan vositalar majmuasidan iboratdir. Bunda san'at asarlari va ularning turlari, xususan, musiqa faoliyatiga doir ijrochilik, qo'shiq, boshqa musiqiy harakatlar, tasviriy san'at asarlari, musiqa va rasm darslarida pedagog-o'qituvchilarning mustaqil izlanish va ijod qilish ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Estetik madaniyatni rivojlantirish jarayonida ushbu vositalarning birortasi e'tibordan chetda qolsa, ko'zlangan maqsadga erishish qiyinlashadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya fani darsliklari asosida o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirish – bu o'quvchilarda go'zallikni anglash, san'atni qadrlash, ularni badiiy tafakkur va ijodiy qobiliyatlar bilan boyitishga yo'naltirilgan kompleks jarayondir. Estetik tarbiya nafaqat go'zallikni anglash, balki tabiat va jamiyatdagi estetik qiymatlarni tushunish hamda ularga bo'lgan munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Tarbiya fani darsliklari bu jarayonda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Tarbiya fani darsliklarining maqsadi – o'quvchilarga estetik qarashlarni shakllantirishda, ularning badiiy tasavvurlarini rivojlantirishda, go'zallikni anglash va san'atni qadrlashda yordam berishdir. Bu darsliklar o'quvchilarda estetik didni shakllantirish, badiiy asarlarni tahlil qilish, go'zallikni qadrlash va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tarbiya fani darsliklari o'quvchilarda nafaqat axloqiy, balki estetik jihatdan ham to'laqonli rivojlanishga xizmat qiladi ^[6].

Estetik tarbiya shakllanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: san'at asarlarini tahlil qilish, badiiy tasavvurlarni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va badiiy asarlarni yaratish. San'at asarlarini tahlil qilish jarayonida o'quvchilar badiiy asarlarning mazmunini anglab, estetik qiymatlarni chuqur tushunib yetadilar, bu esa ularning san'atni anglash, badiiy tafakkur va estetik baholash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy tasavvurlarni rivojlantirishda tarbiya fani darsliklari o'quvchilarga ijodiy mashqlar – she'r yozish, rasm chizish, musiqani tinglash, dramatisatsiya kabi faoliyatlarni taklif etadi, bu jarayonlar o'quvchilarning badiiy fikrlashini boyitadi. Badiiy didni shakllantirish amaliy mashqlar va tahliliy topshiriqlar orqali amalga oshiriladi, bunda o'quvchilarga turli badiiy asarlar taqdim etilib, ularni tahlil qilish va shaxsiy fikr bildirish orqali estetik baholash ko'nikmasi mustahkamlanadi. Shuningdek, tarbiya fani darsliklarida o'quvchilarga badiiy asarlar yaratish imkoniyati beriladi – rasm chizish, hikoya yozish, musiqiy asar yaratish kabi mashqlar orqali ular ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Estetik tarbiya jarayonida tahlil va baholash metodlari keng qo'llaniladi, bunda o'quvchilar san'at asarlarini tahlil qilib, mazmunini anglaydilar va o'z fikrlarini bayon etish orqali estetik qarashlarini mustahkamlaydilar.

Ijodiy faoliyat o'quvchilarda ijodiy tafakkur va estetik didni shakllantirishga xizmat qiladi, interaktiv yondashuvlar esa guruhlarda ishlash, fikr almashish va badiiy asarlarni birgalikda tahlil qilish imkoniyatini beradi. Darsliklarda o'quvchilarga san'at asarlarini ko'rsatish, ularni tahlil qilish va muhokama qilish orqali estetik qobiliyatlarni mustahkamlashga e'tibor qaratiladi. Jamiyatning san'ati, madaniyati va urf-odatlar ham o'quvchilarda estetik qarashlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, o'quvchilar jamiyatdagi estetik qadriyatlarni anglab, ularga bo'lgan munosabatni rivojlantiradilar, bo'lajak pedagoglar esa madaniy merosni o'quvchilarga yetkazish va ularni estetik qadriyatlarga yo'naltirishda asosiy vositachilar sifatida faoliyat yuritadilar ^[6]. Shunday qilib, tarbiya fani darsliklari asosida o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirish jarayoni chuqurlashtirilgan metodlar va yondashuvlar orqali amalga oshiriladi, darsliklarning mazmuni esa shunday shakllantirilishi kerakki, u o'quvchilarda badiiy qarashlarni rivojlantirishga, go'zallikni anglash va san'atni qadrlashga keng imkoniyat yaratadi.

Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun bir nechta qo'shimcha yondashuvlarni ko'rib chiqish mumkin. Tarbiya fani darsliklari estetik tarbiyani shakllantirishda badiiy va ijtimoiy fanlar o'rtasidagi integratsiyalashgan yondashuvni qo'llashi zarur. Bunda badiiy didni rivojlantirish nafaqat san'at fanlari, balki ijtimoiy fanlar va axloqiy tarbiyaning o'zaro bog'liqligini tushunishga yordam beradi. O'quvchilar san'at va madaniyatning jamiyatdagi o'rnini anglab, ularning estetik ta'sirini va ahamiyatini his qiladilar. Tarbiya fani darsliklari orqali o'quvchilarda estetik qobiliyatlarni rivojlantirishda interaktiv yondashuvlarning qo'llanilishi samarali natijalar beradi. Masalan, guruhlarda o'quvchilarga badiiy asarlarni birgalikda tahlil qilish va ular haqidagi fikrlarni muhokama qilish imkoniyati yaratiladi. Bu usul o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, estetik tasavvurlarni rivojlantiradi va boshqalar bilan fikr almashish orqali san'atni chuqur anglashni o'rgatadi. Tarbiya fani darsliklarida an'anaviy pedagogik metodlar va zamonaviy interaktiv yondashuvlar uyg'unlashgan bo'lishi lozim. Masalan, klassik badiiy asarlar bilan bir qatorda zamonaviy san'at asarlarini tahlil etish, yangi texnologiyalar asosida san'at yaratish imkoniyatlarini qo'llash o'quvchilarning estetik qarashlarini kengaytiradi va ijodiy potensialini rivojlantiradi. Estetik tarbiya faqat darsliklar yoki maxsus mashg'ulotlar orqali emas, balki o'quvchilarning kundalik hayotida ham amalga oshirilishi kerak.

Tarbiya fani darsliklari o'quvchilarga badiiy tafakkur va estetik qarashlarni turli hayotiy sohalarda – dizayn, arxitektura, tabiatni muhofaza qilish, etika va estetika yo'nalishlarida qo'llash imkoniyatini beradi. Bu orqali o'quvchilar o'zlarining estetik qobiliyatlarini hayotda muvaffaqiyatli tarzda namoyon etishni o'rganadilar. O'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirishda ijodiy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Tarbiya fani darsliklari orqali o'quvchilarga ijodiy topshiriqlar va mashqlar taqdim etish ularning badiiy tasavvurlarini kengaytiradi hamda ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Bunday mashqlar rasm chizish, kompozitsiyalar yaratish, musiqiy va adabiy asarlar yozish, she'rlar tuzish kabi badiiy faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. Bu orqali o'quvchilar o'z fikrlarini badiiy shaklda ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Estetik tarbiya faqat go'zallikni anglash emas, balki axloqiy qadriyatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Tarbiya fani darsliklari o'quvchilarda nafaqat estetik, balki axloqiy didni ham rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Badiiy asarlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar jamiyatdagi axloqiy masalalarni anglaydilar, estetik qadriyatlarning ahamiyatini tushunadilar va ularni kundalik hayotda qo'llashni o'rganadilar. Tarbiya fani darsliklarini o'rganish va tahlil qilish o'quvchilarda estetik tarbiyani shakllantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Darsliklar orqali nafaqat axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni, balki estetik didni ham rivojlantirish mumkin. Darsliklarning tarkibiy tuzilishini, o'qitish metodikasini, maqsad va vazifalarini tahlil qilish o'quvchilarning badiiy, estetik va axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tarbiya fani darsliklari o'quvchilarga nafaqat axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni yetkazib berish, balki estetik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi ^[6].



Badiiy, axloqiy va estetik qarashlarni shakllantirish uchun darsliklar tarkibida quyidagi elementlar bo'lishi zarur:

- asosiy tushunchalar va tamoyillar, ya'ni estetik tarbiya, axloqiy me'yorlar, go'zallikni anglashga oid bilimlar;
- badiiy va estetik asarlarning tahlili; san'atning turli turlarini o'rganish;
- badiiy-estetik masalalar bilan bog'liq misol va topshiriqlar.

Bu elementlar o'quvchilarga estetik qarashlarni amalda qo'llashni o'rgatadi. Tarbiya fani darsliklarining metodik jihatdan mukammalligi ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarni estetik tarbiya bilan tanishtirishda aktiv o'qitish metodlari qo'llanishi lozim. Masalan, badiiy asarlarni tahlil qilish, ularni o'z fikrlarida ifodalash va guruhda muhokama qilish imkoniyati berilishi kerak. Har bir o'quvchining estetik qobiliyati turlicha bo'lgani uchun darsliklarda differensial yondashuv asosida turli darajadagi vazifalar kiritilishi zarur. Bu orqali har bir o'quvchi o'z salohiyatiga mos tarzda estetik fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, estetik va axloqiy tarbiyani uyg'unlashtirish zarur, chunki go'zallikni tushunish bilan birga axloqiy me'yorlarni shakllantirish o'quvchilarning ma'naviy rivojlanishini mustahkamlaydi. Tarbiya fani darsliklarida materiallarni yig'ish va tahlil qilish jarayoni ham muhimdir. Bunda badiiy asarlar, she'rlar, hikoyalar, maqollar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ularni tahlil qilish jarayonida o'quvchilarga qanday estetik tasavvurlar berilayotgani va ularning badiiy qadriyatlarni anglash qobiliyati aniqlanadi. Darsliklardagi tahlil metodlari badiiy va estetik asarlardan qanday xulosalar chiqarish mumkinligini aniqlashda yordam beradi. Shuningdek, darsliklarda keltirilgan badiiy asarlarning o'quvchilarga ta'sirini o'rganish ham muhimdir. Bu, o'quvchilarning estetik qarashlarini shakllantirishda samarali yondashuvlarni aniqlash va tarbiya jarayonini yanada takomillashtirishga imkon yaratadi.

XULOSA

Yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash jarayoni ta'limning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Estetik madaniyat, avvalo, o'quvchilarning go'zallikni anglash, uni qadrlash va yaratish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Tarbiya fani orqali bu jarayonni amalga oshirish o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, ijodiy fikrlash qobiliyatining oshishiga va ijtimoiy munosabatlarining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Estetik madaniyatni tarbiyalashda interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi hamda ularning fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini yaratadi. San'at asarlarini tahlil qilish, badiiy adabiyot bilan tanishtirish va tabiat go'zalligini kuzatish orqali o'quvchilar estetik his-tuyg'ularini rivojlantiradilar. Bu jarayon nafaqat ularning estetik didini shakllantiradi, balki insoniyatning madaniy merosini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, estetik madaniyatni tarbiyalash jarayonida o'quvchilarda go'zallik va san'atga nisbatan hurmat hissini rivojlantirish muhimdir. Ular badiiy asarlar va tabiat go'zalligi orqali hayotga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishi, ko'proq ijodiy va innovatsion fikrlashga yo'naltirilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, yosh avlodning jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqarolar sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqori sinf o'quvchilarida estetik madaniyatni tarbiyalash jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u o'quvchilarni nafaqat bilim, balki estetik his-tuyg'ular bilan ham boyitadi. Bu jarayon orqali kelajak avlodi go'zallikni anglashga, san'atni qadrlashga va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga tayyor bo'ladi. Estetik madaniyatni tarbiyalash – bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatdagi estetik muhitni yaxshilash uchun ham zarur omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoev, Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
2. Ochilov, M. O'qituvchi odobi. – T.: 1997.
3. Qurbonov, Sh. Ta'limning yangi qadriyatlari. – "Ma'rifat", 25 sentabr 1999.
4. Kamilov, A. Pedagogika va ta'lim metodikasi: Darsliklar va o'qitish texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2003.
5. Shamsiyev, S., & Abdurahmanova, G. Estetik tarbiya va uning pedagogik metodlari. – T.: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi nashriyoti, 2002.
6. Mahmudov, U. Tarbiya fani darsliklarining pedagogik mohiyati va metodikasi. – Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2021.
7. Rasulova, D. Estetik did va badiiy tasavvur: Pedagogik yondashuvlar. – T.: O'zbekiston ta'lim akademiyasi nashriyoti, 2024.
8. Nurmatova, M. Estetik tarbiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Ta'lim va rivojlanish markazi, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.